

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GEOGRAFIYA FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi geografiya fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezoni va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning geografiya fani bo‘yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

1. Geografiyaning boshlang‘ich kursi;
2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi;
3. O‘zbekistonning tabiiy geografiyasi
4. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi;
5. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi;
6. Amaliy geografiya
7. Umumiy geografik qonuniyatlar, geografiya nazariyasi asosida masala, misol va topshiriqlar.
8. Geografiya fani mazmunini o‘zida ifodalovchi xarita va atlaslar

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulush i (%)	Testla r soni
GEOGRAFIYA				
Geografiyanin g boshlang'ich kursi	Geografiya fani va uning rivojlanishi. Quyosh sistemasi va Yer.Geografik xaritalar. Geografik qobiq. Litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera.	Geografiya fani mazmunining nazariy asoslarini, Quyosh sistemasi va yer shakli, holati, harakati bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qiladi. Geografik qobiq tarkibiy qismlarini hamda uning rivojlanishiga doir ma'lumotlarga asosan ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarni aniqlaydi, mazkur mavzularga doir geografik masalalarni hal qiladi.	12 %	5
Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi	Dunyo okeani. Materiklar va ularning xususiyatlari.	Materiklar va okeanlarning asosiy xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlarni bilgan holda, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va umumgeografik qonuniyatlarni aniqlaydi, bu mavzularga oid geografik masalalar hal qiladi, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qiladi.	18%	7
O'zbekiston tabiiy geografiyasi	O'zbekistonning tabiiy geografik xususiyatlari. O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlari.	O'zbekiston tabiatining o'ziga xos xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlarni bilgan holda, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va qonuniyatlarni aniqlaydi, mavzuga oid geografik masalalar hal qiladi, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qiladi.	12%	5
O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi	O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi. O'zbekistonning tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonning regional tavsifi.	O'zbekiston geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisining tarkibi va joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning muhim tarmoqlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xo'jalik ixtisoslashuvi hamda iqtisodiy rayonlashtirishga doir nazariy ma'lumotlarni bilgan holda, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va qonuniyatlarni aniqlaydi, mazkur mavzularga doir geografik masalalarni hal qiladi, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qiladi.	15%	6

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi	Jahoning siyosiy xarita. Jahon tabiiy resurslari. Jahon aholisi. Jahon xo‘jaligi geografiyasi. Jahonning regional tavsifi.	Dunyoning siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining boshqaruv shakli, davlat tuzilishi va rivojlanishi, jahon tabiiy resurslari va ekologik muammolar, jahon aholisining tarkibi va joylashuvi, dunyodagi sanoat, qishloq xo‘jaligi va transportning muhim tarmoqlari, jahon mamlakatlari va regionlarining xo‘jalik ixtisoslashuvi hamda alohida mamlakatlar tavsifiga doir nazariy ma’lumotlarni bilgan holda, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va qonuniyatlarni aniqlaydi, mazkur mavzularga doir geografik masalalarni hal qiladi, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qiladi.	20 %	8
Amaliy geografiya	Jamiyat va Tabiat. Amaliy geografik tadqiqotlar. Dunyoning geosiyosiy manzarasi va global muammolar.	Yer tabiati, jamiyat va tabiat, amaliy geografik tadqiqot (geografik ekspertiza, monitoring, prognozlash) ishlarini, tabiiy geografik jarayonlarning sabab va oqibatlari, u bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qiladi, jahonning geosiyosiy manzarasi hamda dunyoning yirik subregionlariga doir nazariy ma’lumotlarni bilgan holda, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va qonuniyatlarni aniqlaydi, mazkur mavzularga doir geografik masalalarni hal qiladi, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qiladi.	8 %	3
Umumiy geografik qonuniyatlar, geografiya nazariyasi asosida masala, misol va topshiriqlar.	Umum geografik qonuniyatlar va geografiya fanining nazariy materiallari asosida (masalan, havo harorati va bosimini aniqlash, shamollarning yo‘nalishi va kuchini aniqlash, yog‘in miqdorini aniqlash, aholining o‘rtacha zichligini aniqlash va hokazo) geografik masalalar.	Umumgeografik qonuniyatlar va geografiya fanining nazariy materiallari asosida (relyef, harorat, namlik, shamol, bosim, quyosh nurining tushish burchagi, soat mintaqalari, daryoning suv sarfi va nishabligi, suvning sho‘rligi, harorati, chuqurligi, aholi o‘sishi, zichligi, ufq tomonlari, azimut va boshqa. oid) geografik masalalarni hal qiladi.	7 %	3
Geografiya	Geografik xaritalar	Geografik atlas va xaritalar, ularning	8 %	3

fani mazmunini o'zida ifodalovchi xarita va atlaslar	va xarita-sxemalar, geografik mazmun sohalari yoki fanning biror bo'limi (mavzusi)ga xos materiallarni o'zida aks ettiruvchi rasm, jadval, grafik, diagramma, sxemalar.	turlari, shartli belgilari, atlas va xaritalardan amaliyotda foydalanishga doir nazariy ma'lumotlarga asosan, xarita va atlas yordamida hududlarga oid ma'lumot va qonuniyatlarni aniqlaydi, mazkur mavzularga doir geografik masalalarni hal qiladi, jarayon yoki hodisalarni ifodalovchi rasm, jadval, grafik, diagramma, sxemalarni tahlil qiladi.		
Jami	40			

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. 7-sinf. Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi). P.G'ulomov va b. "O'qituvchi". 2017.
2. 7-sinf. Geografiya. M. T. Mirakmalov va boshqalar. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. 8-sinf. Geografiya (O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) P.Musayev va b. "Sharq". 2019.
4. 9-sinf. Geografiya (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) A.Qayumov va b. "O'zbekiston" 2019.
5. 10-sinf. Geografiya. V.Federko va b. "Colorpak" 2022.
6. Geografik atlaslar 5, 6, 7, 8, 9-sinflar. Kadastr agentligi 2022, 2023, 2024.
7. Umumiy geografik qonuniyatlar, geografiya nazariyasi asosida masala, misol va topshiriqlar. Amaliy masala va topshiriqlar.